



UDK: 58.009

Zohidaxon YUSUPOVA,
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: zohidaxon.yusupova@gmail.com

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent V.Mahmudov taqrizi ostida

LABGULDOSHLAR OILASI VAKILLARINING HAYOTIY SHAKLLARI, MORFOLOGIYASI VA TARQALISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Labguldoshlar oilasi vakillarining hayotiy shakllari, morfologiyasi va geografik tarqalishi yoritib berilgan. Lamiaceae oilasiga yer yuzida 170 turkum va 3400 tur, MDHda 68 turkum va 950 tur, O'zbekiston florasida 40 turkum va 206 tur kiradi. Hayot shakllariga ko'ra, Lamiaceae oilasiga buta, yarim buta, ko'p yillik, ikki yillik va bir yillik o'tlar kiradi. Tog'li hudud - Lamiaceae oilasining vakillari eng ko'p tarqalgan mintaqa. Lamiaceae oilasi a'zolari orasida iqtisodiy ahamiyatiga ko'ra efir moyi, vitaminlar va ziravorlarga boy vakillar bor.

Kalit so'zlar: Labguldoshlar oilasi, o't, chala buta, buta, zigomorf, morfologiya, tarqalishi, gultojbarg, gul formulasi

LIFE FORMS, MORPHOLOGY AND DISTRIBUTION OF REPRESENTATIVES OF THE FAMILY OF LAMIACEAE

Abstract

In this article, the life forms, morphology and geographical distribution of the representatives of the Lamiaceae family are highlighted. The family of Lamiaceae includes 170 genera and 3400 species on earth, 68 genera and 950 species in the CIS, 40 genera and 206 species in the flora of Uzbekistan. According to their life forms, the family of Lamiaceae includes shrubs, semi-shrubs, perennials, biennials and annual herbs. The mountain region is the region in which representatives of the Lamiaceae family are most common. Among the members of the family of Lamiaceae, there are representatives that are full of essential oil, vitamins, and spices according to their economic importance.

Key words: Family of Lamiaceae, grass, shrub, bush, zygomorph, morphology, distribution, petal, flower formula.

ЖИЗНЕННЫЕ ФОРМЫ, МОРФОЛОГИЯ И РАСПРОСТРАНЕНИЕ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ СЕМЕЙСТВА LAMIACEAE

Аннотация

В данной статье освещены жизненные формы, морфология и географическое распространение представителей семейства Lamiaceae. Семейство губоцветных включает 170 родов и 3400 видов на земле, 68 родов и 950 видов в СНГ, 40 родов и 206 видов во флоре Узбекистана. По жизненным формам семейство Lamiaceae включает кустарники, полукустарники, многолетники, двулетники и однолетние травы. Горный район – это регион, в котором наиболее распространены представители семейства Lamiaceae. Среди представителей семейства Lamiaceae есть представители, богатые эфирным маслом, витаминами и пряностями по своему хозяйственному значению.

Ключевые слова: Семейство губоцветных, трава, кустарник, куст, зигоморфа, морфология, распространение, лепесток, формула цветка

Kirish. Butun Yer yuzasi tabiati o'ziga xos rang-barangdir, bunda yashil o'simliklarning ahamiyati beqiyosdir. Gulli o'simliklar (Magnoliophyta) bo'limi, o'simliklar dunyosining eng yosh va keng tarqalgan hamda progressiv guruhi bo'lib, hozirgi davr barcha mintaqalar o'simliklar qoplamida hukmronlik qiladi. Gulli o'simliklar tuzilishining g'oyat murakkabligi, takomillashganligi, biologik tiplarning xilma-xilligi, turlarning ko'pligi, kishilar va hayvonlar hayotida tutgan o'rni bilan o'simliklarning boshqa guruhlaridan keskin farq qiladi. Ularning dastlabki turlari mezazoy erasining yura davrida paydo bo'la boshlagan. Bo'r davrining o'rtalariga kelib, gulli o'simliklar Yer sharidagi o'simlik o'sishi mumkin bo'lgan hamma joyga keng tarqaladi. Ular shimolda Arktikadan boshlab tropiklargacha, toshli, qumli va tuzli sahrolardan tortib, baland tog'largacha yoyilgan. Ularning ba'zi vakillari boshqa o'simlik guruhlari o'sa olmaydigan sho'r suvli dengizlarda ham o'sadi. Gulli o'simliklar qisqa muddat ichida keng tarqalishiga asosiy sabab bo'r davrida iqlimning tubdan o'zgarganligidir. Gulli o'simliklar guruhiga 250000 dan ortiq tur, 533 oila, 13000 turkum o'simliklar kiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyotlarda, asosan, labguldoshlar oilasining tabiiy holda tarqalgan vakillari haqida ma'lumot beriladi. Masalan, S.Holiqov, O'.Pratov va A.Fayziyevlarning «O'simliklar aniqlagichi» kitobida Labguldoshlar oilasining umumiy tavsifi hamda shu oilaga mansub *Mentha asiatica*, *Salvia sclarea* L., *Ziziphora tenuior* L. va boshqa ayrim turlari haqida ma'lumot keltirib o'tilgan [1]. K.To'jonov, S.Meliboyev, V.Mahmudovlar «O'zbekiston yuksak o'simliklari turkum nomlarining izohli lug'ati» kitobida *Mentha* L., *Ocimum* L., *Salvia* L., *Mentha* L., *Melissa* L., *Lycopis* L., *Thymus* L., *Satureja* L. va yana bir qancha turkumlari nomining ma'nolari hamda kelib chiqishi haqida ma'lumot berganlar. Jumladan, *Satureja* turkumi nomi, Pliniy ma'lumotlaricha, lotin tilida «saturare» - singdirmoq, to'ydirmoq ma'nolarini bildirishi, *Ocimum* yunoncha «ozein» - xushbo'y hid taratmoq ma'nosini bildirishi, *Salvia* turkumi nomi marmarak, zig'irak turkumi nomini anglatib, lotincha «salvara» davolamoq ma'nosini anglatishi hamda *Mentha* turkumi nomini Linney xudo va podshohlar ismiga nisbat berib, botanika faniga hissa qo'shgan olimlar sharafiga qo'yanligi haqidagi ma'lumotlar keltiriladi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Labguldoshlar oilasiga o't, chala buta va buta o'simliklari kiradi. Poyasi 4 qirrali but shaklida qarama-qarshi joylashadi. Yon barglari bo'lmaydi. Gullari zigomorf, ikki jinsli gultojisi 2 ta tojbargining qo'shilib o'sishidan

vujudga kelgan bo'lib, qalpoqsimon yoki yassi shaklda bo'ladi. Ostki 3 ta toj bargdan vujudga kelgan bo'lib, yotiq holatda yoki pastga egilib turadi va aksariyat o'simliklarda bu toj barglarning o'rtadagisi ikkiga ajralgan bo'ladi. Kosachalari beshtishli, barglari qo'shilib o'sgan bo'lib, ba'zan ikki labli bo'ladi va lablarning ustkisi 3 ta toj bargdan, ostkisi 2 ta toj bargdan tuziladi, changchilari 4 ta gultoj naychasiga qo'shilib o'sadi va oldingi 2 tasi keyingi 2 tasiga qaraganda uzunroq bo'ladi. Ba'zan 2 tagina changchi bo'lib qolgan changchilar reduksiyalangan, urug'chilari 2 ta mevacha bargdan tuzilgan tugunchali, ustki 4 uyalidir. Gullarning bandi juda qisqa bo'lib gullar uchki barglarining qo'ltig'ida oddiy to'pgullarga to'plangan, bu kichik to'p gullar esa shingil boshcha yoki ro'vakga o'xshash murakkab to'pgullar hosil qiladi. Gulning changgi tumshuqchasidan oldin yetiladi. Gullar hashoratlar yordamida chetdan changlanadi. Mevalari bir urug'li 4 ta yong'oqchaga ochiladi. Urug'ida endosperm bo'ladi. Labgullilarning aksari turlari efir moyli o'simliklardir. Labguldoshlar oilasining 200 turkumi va 3500 turi bor. Ular butun yer yuzining deyarli hamma joyida uchraydi va o'rmon, dasht, sahro va tog'larda o'sadi. Gul formulasi $Sa(5) So(2/3) A4 G(2)$.

Tahlil va natijalar. Jeneva ayugasi – *Ajuga genevensis* L. Ko'p yillik, poyasini balandligi 25 sm. Bargi teskari uzunroq lansetsimon, yirik tishchali, osti tuksiz, ust tomoni siyrak tuklangan. Gullari halqasimon to'pgullar hosil qiladi. Kosachasi qo'ng'iroqsimon, ko'k rang, 7 mm uzunlikda. Toj barglari havorang, 15 mm uzunlikda, tashqi tomoni tuklangan. May oyida gullab urug'laydi. Toshkent viloyatining dalalaridan tarqalgan.

Komarov tog'bo'znochi (ajdarbosh) – *Dracocephalum Komarovii* Lipsky. Ko'p yillik, poyalari ko'p sonli, asos qismi yo'g'onlashgan, balandligi 10-20 sm. Barglari uchburchaksimon, asosan, yuraksimon, chetlari tekis, kalta bandli. Gullari yuqori qismidan kichraygan, barglar qo'ltig'idan bittadan hosil bo'ladi, kalta tutqichli. Kosachasi 10-11mm uzunlikda, binafsha rangda, ikki labli, mayda burmali, uch tishchali. Toj barglari ko'rinishi tashqi tomondan momiq tuklar bilan qoplangan, 20-22mm uzunlikda. Yong'oqchasi nashtarsimon uzunchiq, uch qirrali, tekis, 3mm uzunlikda. Iyul-avgust oylarida gullab, avgust-sentyabrda urug'lari yetiladi. Tog'larning yuqori qismidagi toshli joylarda o'sadi. Toshkent, viloyati (Ohangaron daryosining yuqori qismida) tarqalgan.

Yovvoyi jodvar – *Eremostachys nuda* Regel. Ko'p yillik, ildizi yo'g'on turpsimon, ayrim hollarda shoxlangan. Payasi tik o'suvchi, oddiy mo'tloq tuksiz, balandligi 50-60 sm. Barglari rombik shaklda bo'lib, mayda, qirrilgan, ostki barglari kalta bandli, pastdagilar 1-2 juftdan, o'troq. Gullari o'troq, kam gulli, xalqalarda joylashgan. Kosachasi 12-15 mm uzunlikda, naychasimon kalta tishchali, 1-1,5 mm uzunlikda. Toj barglari 22-25 mm uzunlikda, oq, ostki labi sariq, tashqi tomoni momiq tuklangan. Yong'og'i tuksiz, May-iyunda gullab, iyun-iyulda yetiladi. Tog' yonbag'irlarining o'rta mintaqalarida o'sadi. Andijon viloyatida tarqalgan.

Qatortishli devortagi o'ti – *Marrubium alternidens* Rech. Ko'p yillik, ko'p sonli poyali, kam shoxlanandigan dag'al tuklangan, balandligi 30-80 sm. Barglari yumaloq, uzun bandli, tishchali-egatchali. Gullari ko'p sonli bo'lib, xalqasimon joylashgan, kosachasi 9-11 mm uzunlikda, yulduzsimon tuklari bilan qoplangan. Toj barglari oq, tashqi tomonini yulduzsimon tuklar egallagan, uzunligi 9-11 mm, bargi ikki bo'lakli qirrilgan. Yong'oqchasi uch qirrali tuxumsimon, 1,5 mm uzunlikda. May-sentyabr oylarida gullab urug'laydi. Begona o't sifatida bog'larda, ekinzorlar chetida va tashlandiq yerlarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Dirivor limono't – *Melissa officinalis* L. Ko'p yillik, poyasi tik, asosidan shoxlanuvchan, qalin dag'al bezlar va tuklar bilan qoplangan, limon singari hidga ega, 30-60 sm balandlikdagi o't o'simlik. Barglari tuxumsimon, chetlari yirik tishchali, ostki tomoni tuksiz, ust tomoni siyrak kalta tuklangan. Gullari uzun tutqichli, xalqasimon joylashgan. Kosachasi 7-8 mm uzunlikda, uzun tolali tuklarga ega. Toj barglari oq, tashqi tomoni biroz tuklangan, 13-14 mm uzunlikda. Yong'oqchasi uch qirrali, to'q-qo'ng'ir 1.7 mm uzunlikda. Iyun-avgust oylarida gullab, iyul-sentyabr oylarida urug'i yetiladi. Tog'larning o'rta mintaqalarida, qoyalar, soylalarda o'sadi. Toshkent, Qashqadaryo, Farg'ona, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Qalampir yalpiz – *Mentha piperita* L. Ko'p yillik, balandligi 30-40 sm, poyalari oddiy kam shoxlangan. Barglari uzun nashtarsimon, uchi uchli, qisqa bandli, tishchalari arrasimon. Gullari poya va shoxchalar uchida boshqosimon to'pgul hosil qiladi. Kosachasi binafsha, tuksiz, uch burchakli, uchli kipriksimon tishchali. Toj barglari pushti-ko'kish, 3-4 mm uzunlikda. Changchilari toj barglardan qisqa. Iyun-avgust oylarida gullaydi. Kam hollarda ariqlar qirg'og'ida o'sadi. Toshkent viloyatida tarqalgan.

Dala yalpizi (suv yalpizi)-*Mentha arvensis* L. Ko'p yillik, poyasi tik o'suvchi, asosidan shoxlanuvchi, poyasi to'rt qirrali, 25-50 sm balandlikdagi o't o'simlik. Barglari uzunchiq nashtarsimon, qalin, kalta tuklar bilan qoplangan. Gullari shoxlar va poyaning uchida boshqosimon to'p gullar hosil qiladi. Kosachasi 2.5 mm uzunlikda, uch qirrali, o'tkir tishchali. Toj barglari pushti-binafsha rangda, 4-5 mm uzunlikda. Iyul-avgustda gullab, avgust-sentyabrda urug'lari yetiladi. Tekisliklarda va tog' oldi tumanlarida ariq va suv havzalari qirg'og'ida, zax yerlarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona viloyatlarida tarqalgan.

Osiyo suv yalpizi (cho'l yalpizi)-*Mentha asiatica* Boriss. (*M. longifolia*). Ko'p yillik, poyasi tik o'suvchi, sershox, qalin tuklangan, balandligi 60-100 sm. Barglari nashtarsimon, o'troq, xar ikki tomoni tuklangan. Gullari qisqa tutqichli bo'lib, poya uchida boshqosimon to'p gullar hosil qiladi. Kosachasi qalin tuklangan, 2-2,5-(3) mm uzunlikda, ensiz uchburchak, uchki qismi tishchali. Toj barglari ochiq-binafsha rangda va uzunligi 3-4 mm. Iyun-avgust oylarida gullab, iyul-sentyabrda urug'i yetiladi. Tog'larning o'rta mintaqasigacha, nam yerlar, ariqlar, buloqlar atrofida o'sadi. Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Mushuk zufo-Nepeta cataria L. Ko'p yillik, poyalari yo'g'on, sershox, balandligi 60-80 sm. Barglari uchburchakli, teskari tuxumsimon, asosi yuraksimon, yirik tishchali, yuzasi tuksiz, ostki tomoni siyrak tukli. Gullari siyrak, ko'p sonli, yarim soyabonsimon, to'pgul hosil qiladi. Gul tutqichlari 5-10 mm uzunlikda, gul yon barglari juda mayda, nashtarsimon ignaga o'xshash tuklangan. Kosachasi 5-6 mm uzunlikda, kulrang momikli. Toj barglari och havorang yoki ko'k, ayrim hollarda oq, 7-8 mm uzunlikda. Yong'oqchasi ellipsissimon, qo'ng'ir rangda, tekis, 1,5 mm uzunlikda, iyun-iyul oylarida gullaydi, iyul-avgustda urug'laydi. Tog'larning o'rta mintaqasigacha begona o't sifatida o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Surxondaryo viloyatlarida va Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

Mayda gulli tog' rayhoni-*Origanum thythanum* Jontseh. Ko'p yillik, poyasi tik o'suvchi, ko'p sonli, yuqori qismidan shoxlanuvchi, balandligi 30-60 sm. Bargi tuxumsimon yoki uzunchiqroq, to'mtoq, asosi ponasimon, chetlari tekis, yuzasi tuksiz. Gullari o'troq, boshqosimon, yarim soyabonsimon, qalqonsimon to'pgullarga to'plangan. Kosachasi 3 mm uzunlikda, kalta tuklangan. Toj bargi och ko'kish-pushti, 5 mm uzunlikda. Yong'oqchasi to'q-qo'ng'ir, 0,75 mm uzunlikda, iyul-avgust oylarida

gullab, iyul-sentyabr oyida urug'lari yetiladi. Tog'larning o'rta va pastki mintaqalaridagi toshli-shag'alli joylarda o'sadi. Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Muxallis barg qisraq (xapri)- *Perovskia serophulariifolia* Bunge. Ko'p yillik, yo'g'onlashuvchan poyali, qo'ng'ir qobiqli chala buta, balandligi 60-120 sm. Barglari uzunchoq yoki tuxumsimon, to'ntoq tishchali, Gullari kalta tutqichli kam gulli, xalqasimonga o'xshash joylashgan, shingili to'pgul hosil qiladi. Kosachasining uzunligi 5-6 mm, binafsha rangli, barcha qismi uzun tuklar bilan qoplangan. Tojbarglari binafsha rangda, uzunligi 11-12 mm, siyrak momiq. Iyun-iyulda gullab, iyul-avgust oylarida yetiladi. Tog'larning pastki mintaqalaridagi suyruma toshlar, shag'alli joylarda o'sadi. Farg'ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Sigirquyruqsimon qo'ziquloq-*Phlomis thapsoides* Bunge. Ko'p yillik, ko'p sonli poyali, tik o'suvchi, shoxlangan, yulduzsimon momiq tuklar bilan qoplangan, balandligi 30-50 sm. Barglari keng tuxumsimon, ostki barglari bandli, yuqoridagilari qisqa bandli, yuza va ostki qismlari ham yulduzsimon tuklar bilan qoplangan. Gullari yuqoridagi gul barglarining qo'ltig'ida 2-6 tadan joylashgan. Kosachasi 12-14 mm uzunlikda, qalin yulduzli tuklar bilan qoplangan, qobirg'ali, 0,5-2 mm uzunlikdagi kalta tikansimon tishchali, tojbarglari pushti-ko'k rangda. Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgust oylarida urug'lari yetiladi. Tog' oldi yayoqlarida asosiy landshaft o'simligi sifatida o'sadi. Samarqand, Surxondaryo, viloyatlarining g'arbiy qismlarida tarqalgan.

Oddiy ustixodus-*Prunella vulgaris* L. Ko'p yillik, poyasi tik o'suvchi, yuqori qismidan shoxlanuvchi, 10-40 sm balandlikdagi o't o'simlik. Barglari uzunchoq tuxumsimon, chetlari tekis, to'q yashil, tuksiz. Gullari kalta tutqichli, zich boshqosimon gul to'plamiga ega. Kosachasi 5-6 mm, urug'laydi, binafsha rangda. Tojbarglari oqish, binafsha dog'lari bor. Tuksiz, 9-10 mm uzunlikda. Yong'oqchasi ellipsisimon, uch qirrali, tuksiz, tekis, ochiq-qo'ng'ir, 2mm uzunlikda. Iyul-avgust oylarida gullab, avgust-sentyabr oylarida urug'i yetiladi. Tog' oldi va yuqori tog' mintaqalaridagi nam joylarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Bozulbang-Lagochilus *gupsaceus* Vved. Ko'p yillik, poyasining balandligi (15) 30-40 sm, ko'p sonli poyali, poyasi oqish-kulrang tuklar bilan qoplangan. Barglari lopatkasimon, chetlari tishchali yoki bo'laklarga bo'lingan. Gullari o'troq, 4-6 tadan barg qo'ltig'ida joylashgan. Kosachasi ingichka qo'ng'iroqsimon, uchlari tikansimon tishchali, 12-18 mm uzunlikda. Tojbarglari oq yoki pushti, 20-25 mm uzunlikda. Yong'oqchasi tuksiz, 4-5 mm uzunlikda. May-avgust oylarida gullab, iyun-avgust oylarida urug'lari yetiladi. Tog' oldi tumanlarida, qo'ng'ir tuproqli joylarda o'sadi. Surxondaryo viloyati (Guzar va Sherobod oralig'ida) tarqalgan.

Dag'al tukli bozilbang-Lagochilus *hirsutissimus* Vved. Ko'p yillik, poyalari yog'ochlanuvchi, tik o'suvchi, kam shoxlanuvchi, balandligi (10)-15-30 sm. Barglari rombik tuxumsimon, chuqur o'yilgan, uchki qismi tuklangan. Gullari barg qo'ltig'ida 4-8 tadan o'troq joylashgan. Kosachasi qo'ng'iroqsimon, uchlari tikansimon uchli, ostki kosachasi 20-25 mm uzunlikda. Tojbarglari oq, qo'ng'ir nurlari bor, uzunligi 25-27 mm, iyun-iyul oylarida gullaydi. Tog' oldi tumanlarida shag'alli-mayda tuproqli joylarda o'sadi. Farg'ona viloyatining (Qurama tizmasini) tog' oldida tarqalgan.

Gangituvchi bozilbang (Bangi devona)-Lagochilus *inebrians* Bunge. Ko'p yillik, poyasi yog'ochlanuvchan, shoxlangan, gorizontall tuklar bilan qoplangan, yaltiroq oq qobiqli, balandligi (20)-30-40-(60) sm. Barglari tuxumsimon-rombik, bo'laklarga bo'lingan, tuklar bilan qoplangan. Gullari o'troq, 4-6 tadan yuqoridagi barglar qo'ltig'idan o'rin olgan. Kosachasi ingichka qo'ng'iroqsimon, uchi tikanli, 15-23 mm uzunlikda. Tojbargi oq yoki pushti, qo'ng'irsimon dog'lari bor, 20-28 mm uzunlikda. Yong'og'i tuksiz, 4-5 mm uzunlikda. Iyun-avgustda gullab, iyul-sentyabrda urug'lari yetiladi. Tog' oldi tumanlarda toshli-shag'alli tuproqlarda o'sadi. Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Knorring bozulbangi-Lagochilus *Knorringianus* Pavl. Ko'p yillik, poyalari tik o'suvchi, shoxlangan, tuklangan, balandligi 20-30 sm. Barglari rombiksomon, ikki bora qirqilgan. Gullari yuqori barglarni qo'ltig'ida 4 tadan joylashgan. Kosachasi ingichka qo'ng'iroqsimon, ostki tojlari 11-12, yuqoridagisi 16-17 mm uzunlikda, kosachani uchi tikansimon tugallanadi, 27-28 mm uzunlikda. Yong'og'i burishqon, 6 mm uzunlikda. May oyida gullab, iyunda urug'lari yetiladi. Tog'ning pastki yon bag'irlarida o'sadi. Farg'ona viloyati (Chotqol tizmasida) tarqalgan.

Royla mallachoyi-Lallemantia *Rogleana* (Wall.) Benth. Bir yillik, oddiy, poyali asosidan shoxlangan, balandligi (5)-10 - 25-60 sm. Barglari ellipsimon, asosi keng ponasimon, bandlari yaprog'idan ikki bora uzun. Gullari yo'g'on bandli boshqosimon. Kosachasi 7-8 mm uzunlikda, momiq tuklangan, qalqonsimon o'tkir tishchali. Tojbarglari binafsha rangda, tashqi tomoni momiq tuklangan, kosasidan oz-moz uzunroq, yong'oqchasi uch qirrali, tuksiz, tekis, to'q qo'ng'ir, 2,75 mm uzunlikda. Aprel-iyul oylarida gullab, may-iyulda urug'lari yetiladi. Cho'l hududlaridan to tog'larning o'rta mintaqalarigacha bo'lgan joylarda o'sadi. Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg'ona, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

Xulosa va takliflar. Labguldoshlar oilasi yer yuzida 170 turkum 3400 tur, MDH da 68 turkum 950 tur, O'zbekiston florasida 40 turkum 206 turni o'z ichiga oladi. Labguldoshlar oilasi vakillarining barglari oddiy barglar bo'lib, ular, asosan, poyada qarama-qarshi joylashgan. Poyasining shakli ham ko'plab vakillarida to'rtburchak qirrali shaklda. Bu oila vakillarining tanasi yer yuzasiga nisbatan ham ortotrop, ham plagiotrop holatda joylashgan. Gullari ko'proq poyada doirasimon o'mashgan to'pgullardan iborat. Mevalari asosan yong'oqcha. Hayotiy shakllariga ko'ra labguldoshlar oilasi tarkibiga buta, butacha, yarim buta, yarim butacha, ko'p yillik, ikki yillik va bir yillik o't o'simliklar kiradi. Labguldoshlar oila vakillari eng ko'p tarqalgan mintaq bu tog' mintaqasi hisoblanadi. Labguldoshlar oilasi vakillari orasida xo'jalik jihatdan ahamiyatiga ko'ra efir moyli, vitaminli, ziravorli vakillar uchraydi. Eng keng tarqalgan vakillari bu efir moyli vakillaridir. Bunga sabab o'simliklarning poya va barglari bezli tuklar bilan qoplangan.

ADABIYOTLAR

1. Holiqov S., Prator O., Fayziyev A. O'simliklar aniqlagichi. [Plant identifier] – Toshkent, 1995.
2. Toyjonov K., Meliboyev S., Mahmudov V. O'zbekiston yuksak o'simliklari turkum nomlarining izohli lug'ati [Explanatory dictionary of names of the category of higher plants of Uzbekistan] – Toshkent, 2008.
3. Karimov V., Shomahmudov A. Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibda qo'llaniladigan shifobaxsh o'simliklar [Medicinal plants used in folk medicine and modern science] —Toshkent, 1993.
4. Kursanov A. I. And others. Botanika. 2-tom [Botany, 2nd volume] –Toshkent, 1963.
5. Mustafoyev S.M. Botanika [Botany] –Toshkent, 2002.
6. Nabiyev M. Botanika atlas-lug'ati [Botanical dictionary] —Toshkent, 1969.

7. Yusupova Z. A. (2021). LABGULDOSHLAR OILASI VAKILLARIGA OID BOTANIK TADQIQOTLAR TARIXI. Science and Education, 2(3), 47-50.
8. Yusupova Z. A., & Bozorov I. E. O'. (2021). Yalpizdoshlar (Lamiaceae) oilasi shifobaxsh va dorivor turlarning morfologik va bioekologik xossalari. Science and Education, 2(4), 55-63.
9. Turginov O. T., Makhkamov T. X., Rakhmatov A. A., Sattarova G. S., Yusupova Z. A., & Uzmanov M. X. ENDEMICAL FOR THE FLORA OF UZBEKISTAN GENUS OF SPECIES ALLIUM L.(AMARYLLIDACEAE). ILMIY XABARNOMA, 11.
10. Kadirova K. A., Yusupova Z. A., & Makhmudova Y. S. (2020). DISTRIBUTION OF THE BRASSICACEAE EPHEMERA IN THE FLORA OF THE FERGANA VALLEY. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(10), 146-153.